

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

No 414

2019-yil " "



QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar

Ta'lif sohasi: 120000 – Gumanitar

Ta'lif yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Umumiyo soat: 66 soat

Ma'ruza: 26 soat

Amaliy: 20 soat

Semenar: 20 soat

Samarqand – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:


D.Jabborova SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasni katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Taqrizchilar:

Sh.Hasanov "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasni mudiri, filologiya fanlari doktori.

M.Xolova SamDChTI "Til nazariyasi va adabiyotshunoslik" kafedrasni katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining 2019-yil 22-iyundagi 11-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tdi.


Kafedra mudiri  **Sh. Hasanov**

Fanning ishchi o'quv dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil 22-iyundagi № 11 bayonnomada tasdiqlandi).

Fakultet ilmiy kengashi raisi

 **J. Eltazarov**


Fakultet uslubiy kengashi raisi:

 **M. Abdiyev**

Kelishildi:

O'quv uslubiy

boshqarma boshlig'i

 **B. Aliqulov**

O‘quv fanining dolzarbligi va oliv kasbiy ta’limdagi o‘rni

Talaba yoshlarning adabiy-estetik dunyo qarashlarini boyitish, ularda go‘zallik tuyg‘ularini shakllantirish davrimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Shujihatdan olib qaraganda, bugungi kunda Sharq va G‘arb adabiyotining o‘zaro ta’siri va aloqalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, o‘zlikni anglash, o‘z tarixini mukammal o‘rganish davr taqozosi. Ming yillik tariximizning guvohlik berishicha, qadimgi Sharq G‘arb madaniyati, ilm-fanining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Jumladan, G‘arb madaniyati falsafasi, ma’naviyatining shakllanishida bizning ulug‘ ajdodlarimiz Forobiy. Beruniy, Ibn Sinolaming ta’siri benihoya katta bo‘lgan. Qiyosiy adabiyotshunoslik fani talabalarni jahon adabiyoti va adabiyotshunosligening uniumiy va xususiy jihatlarini qiyosiy jihatdan o‘rganishga tayyorlaydi va o‘zbek adabiyotining ilg‘or tomonlarini targ‘ib qilib, tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy, adabiy aloqalar qadimdan mavjud. Bunday aloqalar tufayli adabiy hayotda bir xalqning adabiyoti ikkinchisini to‘ldirib kelgan. Ushbu jarayonni o‘rganish orqali adabiyot tarixi, nazariyasi bilan bog‘liq muhim xulosalar chiqarish mumkin.

“Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining predmeti, obyekti, maqsadi, ahamiyati haqidagi ma’lumotlarni bilishi kerak;
- badiiy asarga estetik baho berish, jahon xalqlari adabiyoti durdonalarini, jumladan, Sharq va G‘arb adabiyoti namunalarini taqqoslash, baholash kabi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi;
- badiiy asarni nazariv jihatdan tahlil va talqin qila bilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

Jahoning turli xalqlari adabiyotiga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar, ulaming boshqa xalqlar adabiyotiga ta’siri, turli xalqlaming jahon adabiyoti rivojiga qo‘sghan hissasini ilmiylik asosida baholash ko‘nikmalarini hosil qilishi zarur.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlар quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma‘ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga

jalb qilish. “qiyosiy adabiyotshunoslik” fanini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyatini bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyat kuchayadi. Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani Shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo’llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo’llash. Yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo’llash.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar. O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari: oqitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalarini.

Kommunikasiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar. Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blis-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini

rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma’ruza) fanni mavzulari mantiquy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinadi.

Ma’ruza mashg‘ulotlari

1-modul. Qiyosiy adabiyotshimoslikning nazariya masalaiari

“Qiyosiy adabiyotshunoslik” fani predmeti va mazmuni

Qiyosiy adabiyotshunoslik fan sifatida. Shakllanish tarixi. Metodologik omillari. A.N.Veselovskiy, V.M.Jirnnmskiy, N.A.Konradning qiyosiy adabiyotshunoslikka old tadqiqotlari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining predmeti: adabiy-estetik, ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy manbalar ularga oid tadqiqotlar. O‘zbek adabiyotshunoslida qiyosiy metod masalaiari: komparativistika, adabiy aloqalar va tarjimashunoslilik. Qiyosiy adabiyotshunoslik va gumanitar fanlar. Mazkur fanning folklorshunoslilik, mumtoz poetika, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid tarixi va nazariyasi bilan uzviy bog‘liqligi.

Sharq va g‘arb adabiyoti: davrlar. adabiy-estetik qarashlar, adabiy oqimlar, adabiy siymolar, adabiy-estetik manbalar. poetik komponentlar tipologiyasi.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda sinkretizm masalasi

Sinkretizm qiyosiy adabiyotshimoslikning nazariy asosi sifatida. Sinkretizm nazariyasi: kashf etilishi, tarixiy-madaniy asoslari, ilmiy-nazariy kriteriyları.

Sinkretizmning tarixiy tadrij bosqichlari: din, sinf, adabiyot sinkretizimi.

Ilohiy kitoblar va mifologik tafakkur masalasi

“Zabur”, “Tavrot”, “Injil”, “Qur’oni karim”da olam, odam, ibtido, intiho, abadiy hayot, zohir va botin masalaiari talqini. Ilohiy axborotlar germanievtkasi: sharh, talqin, tadqiq xilma-xilliklari. Mif va uning manbaları. Shumer, Hind, Misr, Xitoy, O‘rtal Osiyo va Eron, antik Yunon mifologiyasi: ilohiy kitoblar bilan munosabati, badiiy, tarixiy, falsafiy, psixologik omillari. Ichki tipologik xususiyatlari.

Sharq va G‘arb eposi tipologiyasi.

“Bilgamish”, “Ramayana”, “Mahobhorat”, “Iliada”, “Odisseya”, “Alpomish” eposlari: syujet, motiv, obraz va epik tasvir tipologiyasi. “Shohnoma”ning epos

emasligi. Asar “Eron shohlari solnomalari”ning badiiylashtirilgan shakli sifatida. Asarda kompelvativlik, ilk klassitsizm, konseptual mahdudlik muammolari.

Eng qadimgi drama qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida.

Teatr san’ati paydo bo‘iis tarixi, uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, dialog, to ‘qashuv kabi) insoniyatning ibridoiv davrlarida ovchilik, mehnat va diniy marosim, bayramlar bilan, totemizm, animizm kabi ibridoiy dunyoqarash va ajdodlaming ruhlarga sig‘inish bilan bog‘liq holda shakllanishi. Yunoniston, Ilindiston, Turonda mil. av. 5-asrlarda teatrning jamiyat hayotida tutgan o’mi. Sharq va G‘arb teatrining o‘xhash hamda farqli jihatlari. Markaziy Osiyoda tomosha san’ati. Yevropa usulidagi teatrning Sharq mamlakatlariga tarqalishi.

Qadimgi davr jahon lirkasining tipologik xususiyatlari.

Lirika so‘zining etimologiyasi. Qadim Yunonistonda lirik she’riyatning musiqa, raqs va san’atning boshqa turlari bilan bog‘liqligi. Sharq lirkasining ilk omillari: xalq baxshilarining she’riy cholg‘u jo‘rligida kuylab aytishi. Sharq va G‘arb adabiyotidagi lirik janrlar. O‘zaro aloqalar natijasida vujudga kelgan lirik janrlar. XX asr she’riyati. Yangi o‘zbek she’riyatida g‘arbona unsurlar.

2-modul. Sharq va G‘arb badiiy tafakkuri qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida

Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sinolarning adabiy-estetik qarashlari qiyosi.

Platon va Aristotelning adabiy qarashlari. Aristotelning “Poetika” asari. Forobiyning «She’ry va qofiyalar haqida so‘z», «Ritorika haqida kitob», «She’ r kitobi», «Shoirlar san’ati qonunlari haqida» asarlarida badiiy san’atlar haqida bildirilgan fikrlar. Forobiyning yunon va arab adabiyoti haqidagi fikrlari. Ibn Sinoning adabiy qarashlari shakllanishida Aristotel va Forobiyning ta’siri.

G‘arb va Sharq adabiyotida o‘rta asrlar masalasi

O‘rta asr istilohi. Uning xronologiya prinsipiiga asoslanmasligi. Sharq va G‘arb adabiyoti o‘rta asri: etik asos, estetik konsepsiya, badiy shakl va mazmun, xronologiya jihatidan umumiv va xususiy tomonlari. Sharq va G‘arb o‘rta asrlar adabiyoti: janr, syujet, obraz. Bu adabiyotlarda inson konsepsiyasi.

Sharq va G‘arb Renessans adabiyotini qiyosiy o‘rganish

Sharq va g‘arb uyg‘onish adabiyotining konsoptual o‘xhashliklari va (farqlari, xronologik chegaralari, ma’rifiy, falsafiy, adabiy-estetik omillari. Sharq va G‘arb Renessansida o‘zaro ta’sir masalasi. Italian, ingliz, ispan, fransuz, nemis adabiyotida arab, eron, turkiy adabiyot an’analalarining namoyon bo‘lishi. Burhoniddin Marg‘iloniy, Ahmad Farg‘oniy, Sanoe Balxiy, Abu a ’lo al-Ma’arriy, Ibn Sino Ibn Kushd, Amir Temur. Nizomiy, Navoiv va G‘arb adabiyotining

Dante, Shekspir, Mario, Gyote singari genial ijodkorlari o'rtasidagi tipologik jihatlami yangicha o'rghanish tamoyillari.

Uyg'onish davri badiiy tafakkuri tipologiyasi.

Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiv va Dante filologik merosi aro mushtarak xususiyatlar. Shekspir va Gyote sharq-isлом adabiyotining sodiq muxlislari sitatida. Shekspir va Gyote ijodida sharq-isлом syujetlari va obrazlari. K.Mario ijodida Amir Temur obrazi. G'arb xalqlari og'zaki va yozma ijodida Aleksandr mavzusi: Iskandar haqida roman. Roman an' analari. Xamsanavislар ijodida Iskandar obrazi: Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar obrazi talqini.

Sharq va G'arb klassitsizmi: umumivlik va xususiylik.

Klassitsizm umuminsoniy hodisa sitatida. Klasitsiznming falsafiy asoslari. Klassitsizm psixologik hodisa sifatida: namunaga taqlid masalasi. G'arb va sharq klassitsizimining umumiyligi xususiyatlari. Sharq klassitsizmining XVII asr Yevropa klassitsizmidan tom ma'noda farq qilishi. G'arb klassitsizmining ijtimoiy zarurati. Falsafiy va badiiy asoslarining maxsus ishlab chiqilganligi. Klassitsizm falsafasi va G'arb sivilizatsiyasi: madaniy millat, madaniyatli odam konsepsiysi. Klassitsizm adabiyoti va nazariyasi. Bualo, Komel, Moler, Rasin g'arb klassitsizmining tipik vakillari sifatida. Klassitsizm va plagiatsizm.

Sharq va G'arb ma'rifatchiligi tipologiyasi: fransuz va jadid ma'rifatchiligi.

G'arb adabiyotida fransuz, ingliz va nemis ma'rifatchiligi. Ulaming umumiy va farqli jihatlari. Ma'rifatchilik g'oyalarining adabiyotda aks etishi. Yevropa ma'rifatchiligi va jadid adabiyoti: mavzular, janrlar, g'oyalar, obrazlar tipologiyasi. Gyote, Russo, Volter, Didro, Defolaming ijodiy prinsiplari. Jadid ma'rifatchiligi: Behbudiy, Fitrat, Avloniylar ijodi.

Sharq va g'arb badiiy tafakkurida sentimentalizm, romantizm, naturalizm, realizm.

Sentimental falsafa va adabiyot. Sharq va G'arb sentimentalizmining uinumiy jihatlari. G'arb sentimentalizmi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida.

1. Stren va G'arb sentimentalizmi. Sharq va G'arb romantizmining estetik mahoratiga ko'ra farqlari va ba'zi umumiyliliklar. Yevropada sharq romantizmi tushunchasi, bu tushunchalardagi xato va noxolisliklar. Mumtoz Sharq adabiyotida romantizm. G'arb romantizmining XIX asr Yevropa xalqlari madaniyati maxsuli ekanligi. G'arb romantizmining ijtimoiy va psixologik tabiat. Sharq va G'arb adabiyotida naturalizm va realizm estetikasi: poetik tamoyillari, bosqichlari va estetik shakllari. Naturalizm va realizm adabiyoti aro umumiy va farqli jihatlar. Ulaming sharq va g'arb adabiyotida tutgan o'rni.

XIX-XX asrlar Yevropa romanchiligi va Sharq zamonaviv nasri.

Roman janrining shakllanishi. Yevropa romanchiligi. Milliy adabiyotlarda roman janriga intilishning kuchayishi. Daniel Defo. P. Beranje, Stendal, P. Merime, Balzak va Charlz Dikkenslar ijodida jamiyat va shaxs muammolarining baduy talqini. XX asr birmchi yarim Yevropa va AQSh tanqidiy realizm adabiyoti. Gi de Mopassan tanqidiy realizmi. Nemis adiblari Tomas Mann, Bernard Shoular ijodida relistik talqin tamoyillari. Sharqda Mustato Kamol, Jurji Zaydon, Abdulla Qodiriy va boshqa adiblaming milliy romanchilikni rivojlantirish borasidagi intilishlari.

Yevropa modernizmi va XX asr yangi o‘zbek adabiyoti

Modemizm, modem, jadid, yangi tushunchalari, istilohiv mohiyati. Yangilik, yangilanish jahon adabiyoti taraqqiyotining muhim sharti ekanligi. Uning hamma zamon va makonlar uchun xosligi. Modemizm adabiyoti xususidagi bahslar: fransuz, rus, o‘zbek adabiyotshunoslari asarlari misolida. Yevropa modernizmi va yangi o‘zbek adabiyoti vakillari: J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu, N.Eshonqul, Sh.Hamro, T.Rustamovlar asarlarining qiyosiy tahlili. Modernizm she’ riyati. O‘zbek she’riyatida shakl yangilanishlari. Rassomlik, teatr va kino san‘atlarida modemizm ko‘rinishlari. Juhon adabiyotida postmodernizm tushunchasi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotining kalendar tematik rejasi

Nº	Ma’ruza mavzulari	soat
1	“Qiyosiy adabiyotshunoslik” fani predmeti va mazmuni.	2
2	Qiyosiy adabiyotshunoslikda sinkretizm masalasi. Illohiy kitoblar va mifologik tafakkur masalasi.	2
3	Sharq va G‘arb eposi tipologiyasi. Eng qadimgi drama qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida.	2
4	Qadimgi davr jahon lirikasining tipologik xususiyatlari.	2
5	Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sinolarning adabiy-estetik qarashlari qiyosi.	2
6	G‘arb va Sharq adabiyotida o‘rtalasmasi.	2
7	Sharq va G‘arb Renessans adabiyotini qiyosiy o‘rganish	2
8	Uyg‘onish davri badiiy tafakkuri tipologiyasi.	2
9	Sharq va G‘arb klassitsizmi: umumivlik va xususiylik.	2
10	Sharq va G‘arb ma’rifatchiligi tipologiyasi: fransuz va jadid ma’rifatchiligi	2
11	Sharq va G‘arb badiiy tafakkurida sentimentalizm, romantizm,	2

	naturalizm, realizm.	
2	XIX-XX asrlar Yevropa romanchiligi va Sharq zamonaviv nasri.	2
3	Yevropa modernizmi va XX asr yangi o‘zbek adabiyoti	2
	Jami:	26

Amaliy mashg‘ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular:

- 1.“Bilgamish” va jahon xalqlari eposi.
2. “Iliada” “Maxabxarata” eposlari tipologiyasi.
3. “Romavana”, “Odisseya” va “Alpomish” asarlarning qiyosiy tahlili.
4. Dante va navoiy masalasi.
5. Gyote ijodida sharq motivlari.
6. Volter, Russo va jadid ma’rifatchilari asarlari qiyosi.
7. Jahon nasri va Qodiriy romanchiligi.
8. Jek London va Abdulla Qahhor.
9. Markes va yangi o‘zbek nasri.
10. J.Joys va T.Rustamov romani.

Qiyosiy adabiyotshunoslik fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotining kalender tematik rejasi

№	Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari	soat
1	“Bilgamish” va jahon xalqlari eposi.	2
2	“Iliada” “Maxabxarata” eposlari tipologiyasi.	2
3	“Romavana”, “Odisseya” va “Alpomish” asarlarning qiyosiy tahlili.	2
4	Dante va Navoiy masalasi.	2
5	Gyote ijodida sharq motivlari.	2
6	Volter, Russo va jadid ma’rifatchilari asarlari qiyosi.	2
7	Jahon nasri va Qodiriy romanchiligi.	2
8	Jek London va Abdulla Qahhor.	2
9	Markes va yangi o‘zbek nasri.	2
10	J.Joys va T.Rustamov romani.	2
	Jami:	20

Seminar mashg‘ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular:

1. Jahan adabiyotida qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari
2. Yunon dramalarida umuminsoniy qadriyatlar ifodasi. (“Zanjirband Prometey”, “Shoh Edip”, “Mediya” dramalari asosida)
3. Qadimgi yunon mifologiyasi badiiy adabiyotning asosi sifatida
4. Homerning qahramon yaratish mahorati
5. G‘arb ma’rifatchiligidagi jadid adabiyotining o‘rganilishi.
6. “Ming bir kecha” va jahon adabiyotida “qissa ichida qissa” usuli
7. Evropa modernistik adabiyotining shakllanish bosqichlari
8. Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” va “Telba” romanlarida psixologizm
9. Dantening “Ilohiy komediya” va A.Oripovning “Jannatga yo‘l” dramasida ijtimoiy-axloqiy qarashlarining ifodalanishi
10. O‘zbek she’riyatida Lorka an’analari.

Seminar mashg‘ulotlarda tavsiya etiladigan mavzular

Qiyosiy adabiyotshunoslik fani bo‘yicha seminar mashg‘ulotining kalendar tematik rejasi

№	Seminar mashg‘ulotlar mavzulari	soat
1.	Jahon adabiyotida qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari	2
2	Yunon dramalarida umuminsoniy qadriyatlar ifodasi. (“Zanjirband Prometey”, “Shoh Edip”, “Mediya” dramalari asosida)	2
3	Qadimgi yunon mifologiyasi badiiy adabiyotning asosi sifatida	2
4	Homerning qahramon yaratish mahorati	2
5	G‘arb ma’rifatchiligidagi jadid adabiyotining o‘rganilishi.	2
6	“Ming bir kecha” va jahon adabiyotida “qissa ichida qissa” usuli	2
7	Evropa modernistik adabiyotining shakllanish bosqichlari	2
8	Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” va “Telba” romanlarida psixologizm	2
9	Dantening “Ilohiy komediya” va A.Oripovning “Jannatga yo‘l” dramasida ijtimoiy-axloqiy qarashlarining ifodalanishi	2
10	O‘zbek she’riyatida Lorka an’analari.	2
	Jami:	20

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni:

Seminar mashg‘uloti mavzulari fanning asosiy masalalariga daxldor bo‘lib , ular talabalaming muayyan mavzular doirasidagi badiiy va nazariy adabiyotlar bilan mustaqil ishslash, mulohaza va mushohada yuritish, tahlil qilish, muhim xulosalar chiqarish yo‘lida malaka va ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan.

Mustaqil ta’limda tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sikretizm tushunchasi va uning o‘rganilishi.
2. Jahon adabiyotini qiyosiy-tarixiy o‘rganish va A.N.Veselovskiy tadqiqotlari.
3. Mifologiya: sharq va g‘arb adabiyotidagi umumiy va farqli jihatlari.
4. Epos nazariyasi qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida.
5. Uyg‘onish adabiyotining umumnazariy muammolari.
6. Klassitsizm va sentimentalizm Sharq va G‘arb adabiyoti kontestida.
7. Sharq va G‘arb ma’rifatchilik adabiyoti: dramatik asarlar tipologiyasi.
8. Sharq va g‘arb realizmi: oliv realizm, tanqidiy realizm va sosrealizm masalasi.
9. G‘arb va yangi o‘zbek adabiyotida modernizm muammosi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzularining kalendar tematik rejasi

Nº	Mustaqil ta’lim mavzulari	Bajarish mudati	soat
1	Sikretizm tushunchasi va uning o‘rganilishi.		3
2	Jahonadabiyotiniqiyosiy-tarixiy o‘rganish va A.N.Veselovskiy tadqiqotlari.		4
3	Mifologiya: Sharq va G‘arb adabiyotidagi umumiy va farqli jihatlari.		4
4	Eposnazariyasiqiyosiyadabiyotshunoslik kontekstida.		2
5	Uyg‘onish adabiyotining umumnazariy muammolari.		4
6	Klassitsizm va sentimentalizm Sharq va G‘arb adabiyoti kontestida.		3
7	Sharq va G‘arb ma’rifatchilik adabiyoti: dramatik asarlar tipologiyasi.		4
8	Sharq va G‘arb realizmi: oliv realizm, tanqidiy realizm va sosrealizm masalasi.		4
9	G‘arb va yangi o‘zbek adabiyotida modernizm muammosi.		2
	Jami:		30

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Farrell. – T., Ўзбекистон. 1997 й.
2. Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – T., Ўқитувчи. 1979 й.
3. Болтабоев X., Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. (I жилд: Қадимги давр). – T.: “МУМТОЗ СЎЗ”, 2015.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Мирзиёв Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2018 йил истиқболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи. // Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 16 январь, №11.
5. Алексеев М.П. и.др. История зарубежной литературы. (Средние века и возрождение) М., «Высшая школа», 1987.
6. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. –М.: 1989.
7. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – T.: Akademnashr, 2015.
8. Жўрақулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – T.: Университет, 2003.
9. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – T.: Фан, 2006.
10. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – T.: F.Гулом, 2015
11. Жалилов С. Бобир ва Юлий Цезарь. – T.: «Янги аср авлоди», 2001.
12. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. –Л. 1979
13. История всемирной литературы. Т., 1-7. М., «Наука», 1983-1990.
14. История зарубежной литературы XX века. (1917-1945) – М., «Высшая школа», 1980.
15. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. – T., “Маънавият”, 2008.
16. Сайдов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. – T.: “Академия”, 2004
17. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – T., Фан, 1978.
- 18.Хўжаева Р.У. Янги давр араб адабиёти тарихи. (Ўқув қўлланма) I қисм. – T., 2004.
19. Ярхов.Н. Антическая драма. Технология. Мастерство. – М.: «Высшая школа», 1990.
20. Ярхов.Н. Трагедия Софокла «Антигона». – М.: «Высшая школа», 1986.
21. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Farrell адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – T.: “Фан”, 2008.
22. Қамбарова Д. Қуръон бахш этган илҳом (Пушкин ижодида Қуръон

оҳанглари). – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2009.

23. Қодиров М., Ўзбек театри тарихи, – Т., 2003

Бадиий адабиётлар

24. “Алпомиш” – Т.: “Шарқ”, 1998
25. Гёте И.В. Фарбу Шарқ девони. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.
26. Гомер. Илиада. – Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
27. Данте Алигьери. Илоҳий комедия. Т., 1975.
28. Панчатаңтрана... – Т.: “Чўлпон”, 1993.
29. Рамаяна Т., Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
30. Калила ва Димна. Т. “Чўлпон”, 2006
31. Фирдавсий А. Шоҳнома. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
32. Шекспир Вильям. Сайланма. Уч жилдлик. – Т.: “Фан”, 2007.
33. Шекспир, Вильям. Сонетлар. Т., “Янги аср авлоди”, 2009.
34. Юзини йўқотган одам. Япон новеллалари. Рус тилидан Узок Жўракулов таржимаси.–Т.: Муҳаррир, 2008.
35. Қосимов А. СИРЛАР (Озод этилган Прометей) // Эй, қаро қўзим. – Т.: “ТАФАККУР”, 2011, 105-127-бетлар.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. [www.o'zbek adabiyoti.com](http://www.o'zbek.adabiyoti.com).
4. www.ziyo.uz
5. www.Lib.ru.
6. www.litera.ru.
7. www.Philologs.narod.ru.

